



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19697210>

Bo'lajak tarbiyachilarni kvazimuloqoti va sugustiv nutqini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish

Turopova Gavxaroy Jamoldin qizi –
Farg'ona davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi,
E-mail: turopovagavxaroy96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash jarayonida kvazimuloqot (modellashtirilgan pedagogik muloqot) va sugustiv nutq (ishontirish hamda psixologik ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan nutq) ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar, interfaol metodlar hamda nutqiy faoliyatni modellashtirishga asoslangan texnologiyalar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar kvazimuloqot va sugustiv nutqni shakllantirish jarayonining samaradorligini oshirish, pedagogik muloqotni optimallashtirish hamda bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kvazimuloqot, sugustiv nutq, pedagogik muloqot, kommunikativ kompetensiya, nutqiy faoliyat, pedagogik ta'sir mexanizmlari, interfaol metodlar, bo'lajak tarbiyachi.

Совершенствование механизма формирования квазикоммуникации и суггестивной речи у будущих воспитателей

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты формирования навыков квазикоммуникации (моделируемого педагогического общения) и суггестивной речи (речи, направленной на убеждение и психологическое воздействие) в процессе профессиональной подготовки будущих воспитателей для дошкольных образовательных организаций. В рамках исследования разработаны педагогические механизмы, интерактивные методы, а также технологии, основанные на моделировании речевой деятельности,

направленные на развитие коммуникативной компетентности воспитателей. Полученные результаты имеют важное значение для повышения эффективности формирования квазикоммуникации и суггестивной речи, оптимизации педагогического общения и развития профессиональной речевой культуры будущих воспитателей.

Ключевые слова: *квазикоммуникация, суггестивная речь, педагогическое общение, коммуникативная компетентность, речевая деятельность, механизмы педагогического воздействия, интерактивные методы, будущий воспитатель.*

Improving the mechanism for developing quasi-communication and suggestive speech in future educators

Annotation. *This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing quasi-communication (modeled pedagogical communication) and suggestive speech (speech aimed at persuasion and psychological influence) skills in the process of professional training of future preschool educators. Within the framework of the study, pedagogical mechanisms, interactive methods, and technologies based on the modeling of speech activity aimed at developing communicative competence were developed. The obtained results are significant for improving the effectiveness of forming quasi-communication and suggestive speech, optimizing pedagogical communication, and enhancing the professional speech culture of future educators.*

Keywords: *quasi-communication, suggestive speech, pedagogical communication, communicative competence, speech activity, mechanisms of pedagogical influence, interactive methods, future educator.*

KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining kasbiy faoliyati samaradorligi, avvalo, uning nutqiy madaniyati va pedagogik muloqot kompetensiyasi bilan belgilanadi. Bo'lajak tarbiyachilar nafaqat bilim beruvchi, balki bolaning ruhiy-emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim pedagogik sub'ekt sifatida namoyon bo'lishi lozim. Shu jihatdan, ularning kasbiy tayyorgarligida nutqiy faoliyatni rivojlantirish, xususan kvazimuloqot va sugustiv nutq ko'nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda global ta'lim makonida pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish, ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi muloqotni psixolingvistik hamda akmeologik yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb masalaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham bo'lajak pedagog kadrlarning kommunikativ kompetensiyasini yangi bosqichga ko'tarish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa tarbiyachilarning nutqiy ta'sir mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Muammoning mohiyati shundaki, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak tarbiyachilar ko'pincha nazariy bilimlarni yetarli darajada o'zlashtirgan bo'lsalarda, real pedagogik jarayonda bolalarning diqqatini jalb qilish, ularning hissiy holatiga moslashish hamda murakkab kommunikativ vaziyatlarni nutq orqali samarali boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu holat an'anaviy o'qitish metodlarining amaliy samaradorligi yetarli darajada emasligini ko'rsatadi.

Mazkur muammoni hal etishda kvazimuloqot mexanizmi muhim o'rin tutadi. Kvazimuloqot (lotincha "quasi" – go'yoki, xuddi) oliy ta'lim auditoriyasida maktabgacha ta'lim muhitini sun'iy modellashtirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv talabaning "talaba-o'qituvchi" munosabatidan "tarbiyachi-bola" munosabatiga ruhiy va nutqiy jihatdan o'tishini ta'minlaydi. Kvazimuloqot mexanizmining yetarli darajada rivojlanmaganligi esa talabalarda auditoriya oldida nutqiy ishonchsizlik va kasbiy adaptatsiya jarayonining murakkablashishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, sugestiv nutq tarbiyachining kasbiy faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Sugestiya (lotincha "suggestio" – uqtirish, ishontirish) bolaning ongiga va hissiyotiga verbal hamda noverbal vositalar orqali ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Tarbiyachi nutqi faqat axborot uzatuvchi vosita bo'lib qolmasdan, balki bolani ishontiruvchi, ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi va motivatsiya beruvchi kuchga ega bo'lishi zarur. Amaliyotda esa ko'pincha qat'iy buyruq ohangida yoki quruq ko'rsatmalar asosida tashkil etilgan muloqot bolalar bilan emotsional aloqaning sustlashishiga olib keladi.

Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida kvazimuloqotni metodik jihatdan modellashtirish hamda sugestiv nutq texnikalarini (intonatsiya, ovoz tembr, pedagogik pauza va boshqa nutqiy vositalar) shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida pedagogik muloqot hamda nutqiy ta'sir mexanizmlarini o'rganish masalasi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, L.S.Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bolaning rivojlanishi muloqot jarayonida, ayniqsa til vositasida amalga oshadi. Bu esa pedagog nutqining rivojlantiruvchi va boshqaruvchi funksiyalarini asoslaydi. A.A.Leontev pedagogik muloqotni shaxslararo o'zaro ta'sirning murakkab tizimi sifatida talqin qilib, unda nutqiy faoliyatning kommunikativ, regulativ va emotsional komponentlarini ajratib ko'rsatadi. Ushbu yondashuv bo'lajak tarbiyachilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish zaruratini ilmiy asoslaydi. Sugestiv ta'sir nazariyasi G.Lozanov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u nutq orqali ongosti jarayonlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini ochib beradi. Shuningdek, Bandler va Grinder tomonidan ishlab chiqilgan neyrolingvistik dasturlash (NLP) konsepsiyasida tilning psixologik ta'sir mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu nazariyalar pedagogik nutqning ishontirish, motivatsiya berish va hissiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kvazimuloqot tushunchasi esa pedagogik faoliyatni modellashtirish bilan bog'liq bo'lib, D.B.Elkonin va J.Brunerlarning faoliyatga asoslangan yondashuvlarida o'z aksini topadi. Xususan, o'yin va simulyatsiya asosidagi ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuvi tezlashishi isbotlangan. Mahalliy olimlar (N.A.Muslimov, J.G'.Yo'ldoshev, O.U.Hasanboyeva va boshqalar) tomonidan pedagogik texnologiyalar, kasbiy shakllanish hamda maktabgacha ta'lim metodikasiga oid olib borilgan tadqiqotlarda ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muhim omil sifatida e'tirof etilgan.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kvazimuloqot va sugestiv nutqni shakllantirish samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodlar tizimidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi uch bosqichli shakllantiruvchi mexanizmga asoslandi:

1. Kvazimuloqotni modellashtirish (simulyatsiya) metodlari:

Mazkur bosqichda pedagogik jarayon sun'iy ravishda modellashtirilib, talabalar real maktabgacha ta'lim muhitiga yaqin sharoitda faoliyat olib borishdi.

Mikropedagogika metodi – talabalar qisqa vaqt oralig'ida (5–10 daqiqa) “tarbiyachi-bola” rollarini bajarib, pedagogik vaziyatlarni nutq orqali boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirdilar.

Vaziyatli keyslar metodi – real hayotga yaqin muammoli vaziyatlar asosida nutqiy qaror qabul qilish, konfliktlarni hal etish va bolalar bilan samarali muloqot o'rnatish kompetensiyalari shakllantirildi.

2. Sugustiv nutqni shakllantirish metodlari:

Ushbu bosqichda nutqning psixologik ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan mashqlar tizimi qo'llanildi:

Verbal-akustik mashqlar – ovoz temбри, intonatsiya, ritm va pedagogik pauzalarni boshqarish orqali nutqning ta'sirchanligini oshirishga yo'naltirildi.

Ijobiy lingvistik konstruksiyalar (affirmatsiyalar) – buyruq va taqiqlovchi nutq o'rniga motivatsion va yo'naltiruvchi iboralarni qo'llash orqali bolaning ongosti qabul qilish mexanizmlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish usullari o'zlashtirildi.

3. Interaktiv monitoring va reflektiv tahlil metodlari:

Mazkur bosqichda shakllangan ko'nikmalarni baholash va tahlil qilish amalga oshirildi:

Videoanaliz metodi – talabalar faoliyati videoga olinib, nutqiy xatolar va yutuqlar aniqlashtirildi.

Refleksiv tahlil – talabalar o'z nutqini mustaqil baholab, o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirdilar.

Peer-review (tengdoshlar bahosi) – boshqa talabalar tomonidan berilgan baholar orqali sugustiv nutqning samaradorligi aniqlashtirildi.

Tadqiqotda tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va reflektiv yondashuvlar integratsiyasi asosida metodologik asos shakllantirildi. Ushbu yondashuvlar kvazimuloqot va sugustiv nutqni shakllantirish jarayonining uzviyligi, bosqichma-bosqichligi hamda amaliy yo'naltirilganligini ta'minladi. Natijada ishlab chiqilgan metodlar majmuasi bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyasini an'anaviy o'qitish metodlariga nisbatan sezilarli darajada tez va samarali shakllantirish imkonini beradi.

NATIJJALAR VA MUHOKAMA

Taklif etilgan kvazimuloqot va sugustiv nutqni shakllantirish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish natijasida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarlik darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Olingan natijalarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilish mumkin:

1. Kommunikativ to'siqlarning kamayishi.

Kvazimuloqot asosidagi mashg'ulotlardan so'ng talabalarda auditoriya oldida nutq so'zlashdagi hayajon hamda bolalar bilan muloqotga kirishishdagi psixologik to'siqlar o'rtacha 35% ga kamaygani aniqlandi. Natijada talabalar real pedagogik vaziyatlarda o'zlarini erkin va ishonchli tutishga erishdilar.

2. Sugustiv ta'sirchanlikning ortishi.

Eksperiment guruhidagi talabalar nutqi tahlili shuni ko'rsatdiki, ularda buyruq ohangidagi nutq birliklari 40% ga kamayib, uning o'rnini ishonirish, yo'naltirish va motivatsion iboralar egalladi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyachi ko'rsatmalarini ixtiyoriy va qiziqish bilan bajarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Nutqiy egiluvchanlikning rivojlanishi.

Monitoring natijalariga ko'ra, eksperiment guruhidagi talabalarning nutq boyligi va vaziyatga mos ravishda nutq ohangini (tembr, ton) o'zgartirish qobiliyati nazorat guruhiga nisbatan 1,5 baravar yuqori bo'ldi. Bu ularning kommunikativ moslashuvchanligi oshganligini ko'rsatadi.

1-jadval.

Tajriba va nazorat guruhlarini natijalarining qiyosiy tahlili

Ko'rsatkichlar	An'anaviy usul (nazorat guruhi)	Takomillashtirilgan mexanizm (tajriba guruhi)
Nutqiy improvizatsiya qobiliyati	45%	78%
Bolalar diqqatini jalb qilish tezligi	3–5 daqiqa	1–1,5 daqiqa
Sugustiv iboralarni qo'llash darajasi	Past	Yuqori

Ushbu jadval ma'lumotlari takomillashtirilgan kvazimuloqot va sugustiv nutq mexanizmlarining an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Natijalar tajriba guruhida kommunikativ ko'nikmalar, nutqiy egiluvchanlik hamda pedagogik ta'sirchanlik darajasining sezilarli oshganligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari kvazimuloqot va sugustiv nutqni shakllantirish mexanizmlarini joriy etish bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv pedagogik muloqotni samarali tashkil etish hamda bolalar bilan emotsional aloqani mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash o'quv rejalariga "Pedagogik sugestiya" va "Kvazimuloqot texnologiyalari" bo'yicha maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiq;
- Talabalarning nutq texnikasini baholashda an'anaviy nazariy yondashuv bilan bir qatorda simulyatsion mashg'ulotlar va rolli o'yinlarga asoslangan amaliy baholash tizimini joriy etish zarur;
- Pedagogik amaliyot jarayonida kvazimuloqot va sugustiv nutq elementlaridan tizimli va bosqichma-bosqich foydalanish samaradorlikni yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari.
2. Yo'ldoshev J.G'. Yangi pedagogik texnologiyalar: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. – Toshkent, 1999.
3. Muslimov N.A. Kasbiy shakllanishning nazariy-metodik asoslari. – T.: 2007.
4. Hasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – T.: 2006.
5. Qodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatishda kvazimuloqotning o'rni // Ilmiy maqolalar to'plami.
6. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
7. Mayer R.E. Multimedia Learning. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
8. Schneider S., Beege M., Nebel S., Rey G.D. A meta-analysis of how signaling affects learning with media // Educational Research Review. – 2018. – Vol. 23. – P. 1–24.
9. Noetel M., Griffith S., Delaney O. et al. Multimedia Design for Learning: An Overview of Reviews With Meta-Analysis // Review of Educational Research. – 2022. – Vol. 92(3). – P. 413–454.
10. Ziyonet.uz – O'zbekiston ta'lim portali materiallari.